XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 12-sentabr VI-85-105-4-67-K/24 Shahrisabz tumani

Shahrisabz tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo’linmasining 2024-yil 01-avgustdagi Shahrisabz tuman tumani hokimiga yuborilgan 01-100-sonli xat orqali maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Shahrisabz tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil “3” avgustdagi №07-01-03/43-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Shahrisabz tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Shahrisabz tuman tumani bilan chegaradosh boʻlgan Kitob,Qamashi, Chiroqchi,Yakkabogʻ tumanlari va Shahrisabz shahri oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi XASANOV SAMAD AXATILLAYEVICH

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani
Kengashining
2024-yil 12-sentabrdagi
VI-85-105-4-67-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanining chegara
TAVSIFI

O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalari chegara chizig‘idagi, Kitob va Shahrisabz tumanlari chegaralari tutashgan joydagi tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda *(shimoliy kenglik* 39° 8' 39,773" *, sharqiy uzunlik* 67° 38' 8,809"*).*

A dan B gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 1-2 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2 nuqta chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish chizig‘idan olindi *(shimoliy kenglik* 39° 1' 12,892"*, sharqiy uzunlik* 67° 40' 57,730"*).*

B dan D gacha Surxondaryo viloyati yerlari bilan 2-5 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Xisor” tog‘ining tizmasi bo‘ylab avval g‘arbiy yo‘nalishda 294 metr masofani o‘tib “Gava” dovoniga tutashadi, keyin chegara chizig‘i orqali “Gava” dovoni va “Xisor” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3810 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 275 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 506 metr va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 394 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1117 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3349 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2946 metr hamda g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 476 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda yoysimon shaklda 1037 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 405 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1059 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik* 39° 0' 36,279"*, sharqiy uzunlik* 67° 32' 52,350"*)*

3-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Xisor” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3393 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 846 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 816 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1419 metr va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1355 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik* 38° 58' 51,555"*, sharqiy uzunlik* 67° 29' 6,448"*)*

4-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Xisor” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval janubiy yo‘nalishda 1085 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1614 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 980 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 1748 metr, so‘ng umumiy holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1917 metr va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1373 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 412 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 369 metr, so‘ng umumiy holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1780 metr,

keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 589 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 2343 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3225 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 518 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 412 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1260 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 404 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 229 metr va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2505 metr masofani o‘tib, Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz va Qamashi tumanlarining chegara chizig‘lari kesishgan joydagi 5-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik* 38° 50' 25,237", *sharqiy uzunlik* 67° 30' 38,435")

D dan E gacha Qamashi tumani yerlari bilan 5-7 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

5-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasining suv ayrig‘ichlari bo‘ylab avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2962 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2657 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 1781 metr so‘ngra umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1200 metr hamda g‘arbiy yo‘nalishda 5083 metr va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 779 metr masofani o‘tib soyga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 695 metr masofani o‘tib keyin tog‘ tizmasining suv ayirg‘ichlari bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3535 metr so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 312 metr masofani o‘tib 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 49' 42,727", *sharqiy uzunlik* 67° 20' 3,745").

6-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1565 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 827 metr so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 379 metr so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 225 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1190 metr so‘ng shimoliy yo‘nalishda 1939 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasining suv ayirg‘ichlariga tutashib so‘ngra umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 12735 metr masofani o‘tib keyin quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1315 metr so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2633 metr masofani o‘tib soy bo‘yidagi 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 51' 22,531", *sharqiy uzunlik* 67° 11' 40,776").

E dan F gacha Yakkabog‘ tumani yerlari bilan 7-17 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

7-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda nomsiz soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 3638 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali va avval g‘arbiy yo‘nalishda 654 metr keyin janubiy yo‘nalishda 765 metr so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1319 metr masofani o‘tib, soyga tutashadi hamda soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 1192 metr, keyin umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4021 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 761 metr, masofani o‘tib to‘g‘ri chegara chizig‘iga tutashadi hamda to‘g‘ri chegara chizig‘i avval shimoliy yo‘nalishda 1178 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1584 metr masofani o‘tib 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 54' 21,783", *sharqiy uzunlik* 67° 8' 11,103").

8-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1307 metr keyin quruq chegara chizig‘iga o‘tib

shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3200 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1277 metr, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 501 metr masofani o‘tib so‘ngra qir adirliklarning suv ayirg‘ichliklari bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 400 metr ketin g‘arbiy yo‘nalishda 584 metr so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2533 metr masofani o‘tib 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 57' 19,248"*, sharqiy uzunlik* 67° 5' 1,006"*).*

9-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 422 metr masofani o‘tib so‘ng soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 2658 metr masofani o‘tib 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 57' 9,386"*, sharqiy uzunlik* 67° 3' 4,027"*).*

10-nuqtadan chegara chizig‘i avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 976 metr masofani o‘tib Sangak soyiga tutashadi va umumiy g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6567 metr masofani o‘tib, so‘ng qir adirliklarning suv ayirg‘ichlariga tutashadi hamda avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 557 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 285 metr so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1134 metr masofani o‘tib, soyga tutashib soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2011 metr, keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 2646 metr, masofani o‘tib soy bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 58' 2,502"*, sharqiy uzunlik* 66° 55' 37,562"*).*

11-nuqtadan chegara chizig‘i Sangak soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 682 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 1654 metr masofani o‘tib so‘ng Sangak soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2938 metr masofani o‘tib, Sangak soy bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 59' 58,383"*, sharqiy uzunlik* 66° 53' 55,756"*).*

12-nuqtadan chegara chizig‘i Darxon kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 181 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2441 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda ariqning suv bo‘ylab chap tomoni bilan 2271 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tgan holda yo‘l bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 59' 46,173"*, sharqiy uzunlik* 66° 50' 46,488"*).*

13-nuqtadan chegara chizig‘i avval qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 347 metr keyin g‘arbiy yo‘nalishda yo‘lning shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1372 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 361 metr, hamda yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 142 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 0' 0,752"*, sharqiy uzunlik* 66° 49' 38,753"*).*

14-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 501 metr keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 891 metr so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 414 metr, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda

831 metr keyin g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1624 metr masofani o‘tib, Yakkabog‘ daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 183 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 2344 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 217 metr, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1299 metr, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 206 metr masofani o‘tib, Yakkabog‘ daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 883 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 1' 37,593"*, sharqiy uzunlik* 66° 45' 45,182"*).*

15-nuqtadan chegara chizig‘i Yakkabog‘ daryosi suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 366 metr keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 869 metr masofani o‘tib, tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 233 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy g‘arbiy yo‘nalishda 439 metr, masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 1' 40,781"*, sharqiy uzunlik* 66° 44' 42,956"*).*

16-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2633 metr keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 673 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5166 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 328 metr keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 1300 metr, masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 199 metr masofani o‘tadi va g‘arbiy yo‘nalishda 26 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 2' 29,300"*, sharqiy uzunlik* 66° 39' 12,915"*).*

F dan G gacha Chiroqchi tumani yerlari bilan 17-21 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 778 metr masofani o‘tib keyin shimoliy yo‘nalishda 755 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning avval janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 628 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 208 metr so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 412 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 182 metr masofada Tanxoz daryosini kesib o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 3' 18,789"*, sharqiy uzunlik* 66° 38' 46,207"*).*

18-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishada Qashqadaryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘I bilan shimoliy yo‘nalishda 863 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 768 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 495 metr masofada Qashqadaryoni kesib o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 4' 16,795"*, sharqiy uzunlik* 66° 38' 52,807"*).*

19-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 217 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda 555

metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1347 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga o‘ng tomoni bilan qarshi barcha burilishlarni hisobga olib xo‘jaliklararo ichki yo‘lini kesib o‘tgan holda 874 metr masofani o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 287 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 53 metr masofada Eskianhor kanalini kesib o‘tib, so‘ngra umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kichik jar soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2457 metr masofani o‘tib soy bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 20,920"*, sharqiy uzunlik* 66° 40' 30,514"*).*

20-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devori bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 658 metr masofani o‘tib ariqqa tutashib keyin sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2178 metr so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 373 metr so‘ngra shimoliy yo‘nalishda ariqning barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2605 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 8' 17,421"*, sharqiy uzunlik* 66° 41' 45,360"*).*

G dan H gacha Kitob tumani yerlari bilan 21-28 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

21-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 626 metr keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 935 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 8' 40,141"*, sharqiy uzunlik* 66° 42' 31,718"*).*

22-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1973 metr masofani o‘tib yo‘lga tutashadi keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 578 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 141 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 98 metr,so‘ngra janubiy yo‘nalishda 62 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashdi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 83 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi hamda zovurning suv oqimi bo‘ylab avval o‘ng tomoni bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 117 metr keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1126 metr, g‘arbiy yo‘nalishda 427 metr masofada zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoniga o‘tadi va g‘arbiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1611 metr masofani yo‘l bo‘yidagi 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 7' 24,250"*, sharqiy uzunlik* 66° 42' 51,171"*).*

23-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2380 metr masofani o‘tib Sho‘rob soyiga tutashadi keyin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 143 metr so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1819 metr masofani o‘tib Qashqadaryoga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 1333 metr masofani o‘tib so‘ngra to‘g ‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 349 metr masofada Qashqadaryoni kesib o‘tib keyin Oqsuv daryosiga tutashadi va sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 839 metr masofani o‘tib daryo

qirg‘og‘i bo‘yidgi 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 5' 47,190"*, sharqiy uzunlik* 66° 45' 34,239"*).*

24-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqsuvdaryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 491 metr masofani o‘yib,keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 121 metr masofada daryoni kesib o‘tib so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 331 metr masofani o‘tib daryo bo‘yidagi 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 5' 56,080"*, sharqiy uzunlik* 66° 46' 2,096"*).*

25-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqsuv daryosining suv oqimiga qarshi oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1511 metr,keyin g‘arbiy yo‘nalishda 969 metr,so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 116 metr masofani o‘tib daryo bo‘yidagi 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 16,888" *, sharqiy uzunlik* 66° 47' 19,910"*).*

26-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqsuv daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 823 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 32,739"*, sharqiy uzunlik* 66° 47' 45,632"*).*

27-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqdaryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 348 metr keyin sharqiy-junubiy-sharqiy yo‘nalishda 526 metr so‘ng umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1766 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 129 metr masofani o‘tib, quruq chegara chizig‘iga o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda 45 metr, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 76 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi hamda yo‘lning avval janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 294 metr keyin janubiy yo‘nalishda yo‘lning sharq tomoni bilan 206 metr masofada ariqqa tutashadi hamda ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 232 metr, so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 499 metr masofani o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 0,045"*, sharqiy uzunlik* 66° 49' 3,227"*).*

H dan I gacha Shahrisabz shahar yerlari bilan 28-35 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

28-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan qishloq ichki yo‘liga o‘tib yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 208 metr masofani o‘tib M-39 yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1332 metr masofani o‘tib keyin avtomobillarga yoqilg‘i quyish shahobchasining devori bo‘ylab avval g‘arbiy yo‘nalishda 100 metr so‘ng janubiy yo‘nalishda 103 metr masofani o‘tib, dala yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 261 metr masofani o‘tib M-39 avtomobil yo‘liga tutashib yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 2779 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 3' 39,120"*, sharqiy uzunlik* 66° 48' 47,326"*).*

29-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 2364 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi va qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 1007 metr

keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 190 metr so‘ng shimoliy yo‘nalishda yo‘lning g‘arb tomoni bilan 277 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 180 metr so‘ng janubiy yo‘nalishda 267 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi so‘ngra qishloq ichki yo‘lining avval shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 334 metr, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda yo‘lning g‘arb tomoni bilan 526 metr masofani o‘tib Tanxozdaryosining qirg‘og‘ida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 2' 8,098"*, sharqiy uzunlik* 66° 47' 25,158"*).*

30-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Tanxozdaryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 395 metr keyin sharqiy yo‘nalishda 1353 metr masofani o‘tib M-39 yo‘liga tutashadi so‘ng M-39 yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1512 metr masofani o‘tib so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib ariqqa tutashib shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 740 metr so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 415 metr masofani o‘tib keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy yo‘nalishda 101 metr so‘ng sharqiy yo‘nalishda 1698 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 1' 18,637", *sharqiy uzunlik* 66° 50' 8,259"*).*

31-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2072 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 1718 metr, masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1224 metr so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1137 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi hamda to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 852 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 3' 28,121"*,sharqiy uzunlik* 66° 52' 50,136"*).*

32-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 733 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi keyin dala yo‘lining avval shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 72 metr so‘ng shimoliy yo‘nalishda yo‘lning sharq tomoni bilan 338 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi so‘ngra shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 269 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi hamda yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1858 metr masofani o‘tib 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 5' 7,241"*,sharqiy uzunlik* 66° 52' 43,584"*).*

33-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 134 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 5' 10,942"*, sharqiy uzunlik* 66° 52' 38,125" *).*

34-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1790 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 900 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 191 metr masofani o‘tib,so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tib avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 73 metr keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 83 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 342 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 293 metr, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-

shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 154 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 5' 58,439" *, sharqiy uzunlik* 66° 51' 10,271"*).*

I dan A gacha Kitob tumani yerlari bilan 35-1 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

35-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1120 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 448 metr so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 335 metr masofani o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 2,703" *, sharqiy uzunlik* 66° 52' 19,995" *).*

36-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 763 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 754 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 0,063" *, sharqiy uzunlik* 66° 53' 16,392" *).*

37-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1829 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 749 metr keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 891 metr masofani o‘tib ariqqa o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda 584 metr so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 967 metr masofani o‘tib, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 111 metr keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 155 metr so‘ng shimoliy yo‘nalishda 1250 metr masofani o‘tib Oqdaryosiga tutashadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 1129 metr masofani o‘tib so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 243 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 239 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 6' 6,269" *, sharqiy uzunlik* 66° 56' 43,552" *).*

38-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1515 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 603 metr so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda 1431 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashib yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 437 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 374 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 4' 52,224" *, sharqiy uzunlik* 66° 58' 5,564"*).*

39-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Oqdaryoning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1472 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘idagi 40-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 66° 59' 1,453"*, sharqiy uzunlik 67° 18' 19,324").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Oqsuvdaryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 2128 metr, keyin umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2999 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 3' 4,058" *, sharqiy uzunlik* 67° 1' 26,674" *).*

41-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Oqsuvdaryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 7193 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 1' 55,019"*, sharqiy uzunlik* 67° 5' 35,941"*).*

42-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 288 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi keyin avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 402 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 2' 8,939" *, sharqiy uzunlik* 67° 5' 20,463"*).*

43-nuqtadan chegara chizig‘i avval avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 74 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 1952 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 501 metr so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 452 metr keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 781 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 237 metr masofani o‘tib 44-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 3' 45,627" *, sharqiy uzunlik* 67° 6' 16,026"*).*

44-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 929 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 873 metr so‘ng shimoliy yo‘nalishda 661 metr sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 610 metr masofani o‘tib 45-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 4' 17,524"*, sharqiy uzunlik* 67° 7' 45,603"*).*

45-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 709 metr masofani o‘tib soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1743 metr masofani o‘tib Qorasuvsoyiga o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 88 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 364 metr masofani o‘tib keyin qir adirliklarning suv ayig‘ichlari bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6191 metr masofani o‘tib 46-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 4' 12,330"*, sharqiy uzunlik* 67° 12' 47,082"*).*


46-nuqtadan chegara chizig‘i qir adirliklarning suv ayig‘ichlari bo‘ylab avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3280 metr keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 8350 metr masofani o‘tib to‘g‘ri chegara chizig‘iga tutashadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1437 metr, sharqiy yo‘nalishda 1807 metr masofani o‘tib so‘ng qir adirliklarning suv ayig‘ichlari bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 1533 metr masofani o‘tib so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2413 metr keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 300 metr masofani o‘tib siyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1990 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 5' 35,632"*, sharqiy uzunlik* 67° 22' 30,016"*).*

47-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqsuvdaryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 17169 metr masofani o‘tib,keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2622 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 847 metr so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2580 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2811 metr so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4669 metr

masofani o‘tib quruq chegara chizig‘iga o‘tadi va avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 455 metr keyin shimoliy yo‘nallishda 590 metr so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1963 metr so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 633 metr masofani o‘tib boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39° 8' 39,773"*, sharqiy uzunlik* 67° 38' 8,809"*).*

Surxondaryo viloyati Bandixon tumani
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	*Tojikiston Respublikasi yerlari*
B dan D gacha	*Surxondaryo viloyati yerlari*
D dan E gacha	*Qamashi tumani yerlari*
E dan F gacha	*Yakkabog' tumani yerlari*
F dan G gacha	*Chiroqchi tumani yerlari*
G dan H gacha	*Kitob tumani yerlari*
H dan I gacha	*Shahrisabz shahar yerlari*
I dan A gacha	*Kitob tumani yerlari*